

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

ERDONOV MUHAMMADAMIN ERDON O'G'LI

**XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY
SALOHIYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economical sciences**

Erdonov Muhammadamin Erdon o‘g‘li

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish
samaradorligini oshirish 3

Эрдонов Мухаммадамин Эрдон угли

Повышение эффективности использования экономического потенциала
предприятий сферы услуг..... 27

Erdonov Muhammadamin Erdon ugli

Improving the efficiency of using the economic potential of service sector
enterprises..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

ERDONOV MUHAMMADAMIN ERDON O'G'LI

**XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY
SALOHIYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3227 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sies.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Arabov Nurali Uralovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Muxammedov Murod Muxammedovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Murodova Nodira Kulliyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.12.2024.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.:(+99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail:sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail:sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

M.T.Alimova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish global raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Bu jarayon, ayniqsa, xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tobora ortib borayotgan bir sharoitda, milliy iqtisodiyotlarning diversifikatsiyasi va yuqori qo'shilgan qiymatga ega xizmat turlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish orqali ularning ichki imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi, balki eksport salohiyatini kengaytirib, xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. "Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65-80 %ni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investisiyalashga sarflanayotgan mablag'lar hissasi esa 3,0 %ni tashkil etmoqda. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlar ulushi 70,0 %dan ziyodni va to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar hajmining 40,0 %i xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda"¹. Shu jihatdan ham bugungi kunda xizmat ko'rsatish korxonalarini iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasida raqobatning kuchayib borishi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatning shakllanishi va uni oshirish omillarini aniqlash, soha korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirishni strategik rejalashtirish, korxonalarda iqtisodiy salohiyatni oshirishning innovatsion mexanizmini takomillashtirish, hududiy xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishini istiqbollashtirish kabilar ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining barqaror rivojlanishi, ularning xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida iqtisodiy salohiyatini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "...Xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi besh yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirish omillarini aniqlash, soha korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, korxonalarda iqtisodiy salohiyatni oshirishning innovatsion mexanizmini, xizmat ko'rsatish korxonasida iqtisodiy salohiyatni integral baholash usulini iqtisodiy salohiyatdan foydalanish holatini guruhlariga tabaqalashtirish hamda korxonalar salohiyatini tavsiflovchi

¹ <http://stats.oecd.org/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

ko'rsatkichlarni tizimlashtirish, xizmat ko'rsatish korxonasida iqtisodiy salohiyat rivojlanishini strategik rejalashtirish tizimi korxonada faoliyatining tashqi muhit omillari bilan bog'liq tashqi strategik maqsadlar hamda ichki muhit omillarini ifodalovchi ichki strategik maqsadlarni aniqlash, korxonaning innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini oshirish, tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish, innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish hamda intellektual salohiyatni rivojlantirish asosida xizmat ko'rsatish korxonasining innovatsion salohiyatini shakllantirish modelini takomillashtirish, hududlardagi xizmatlar bozorining barqaror rivojlanish tendensiyalari hamda jami xizmatlar hajmini oshirishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son “Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Servis iqtisodiyotining rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy salohiyatni oshirish masalalarining ilmiy asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, A.Marshall, M.Fisher, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, M.Porter, Y.A.Shumpeter va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan³.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-uslubiy jihatlari xorijlik olimlar, jumladan: T.D.Burmenko, V.K.Romanovich, S.N.Korobkova, V.I.Kravchenko, S.V.Orlov, I.P.Pavlova, Y.Y.Rumyanseva va boshqalar

³ Дж.М. Кейнс Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; А.Маршалл Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. – М.: Прогресс-Т.3. 1984. -119 с.; Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987. -500 p.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб и др.:ПИТЕР, ПИТЕР бух, 2002. – 751 с.; М.Ю. Портер Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / пер. с англ. Е. Калининой. – М.: «Альпина Паблишер», 2008 (2-е изд. – 2008). – 720 с.; Й.Шумпетер Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.

tomonidan tadqiq qilingan⁴. Ushbu muammolarni o‘rganishga o‘zbekistonlik olimlardan M.E.Po‘latov, M.Q.Pardayev, M.M.Muxammedov, D.R.Zaynalov, Q.J.Mirzayev, I.S.Tuxliyev, N.U.Arabov va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan⁵.

Korxonalar iqtisodiy salohiyatini oshirishning ilmiy-uslubiy jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan: A.N.Asaul, M.P.Voinarenko, V.S.Spirin, O.I.Devyatko va boshqalar sezilarli natijalarga erishganlar⁶. Ushbu muammolar tadqiqoti O‘zbekistonlik olimlar Q.X.Abdurahmonov, G.Q.Abduraxmonova, B.X.Umurzakov, Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G‘afurov, A.R.Axmedjanov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan⁷.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning ayrim jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy salohiyatni oshirish mexanizmlari kompleks tadqiqot sifatida qisman o‘z aksini topgan. Hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Mamlakatni modernizatsiyalash va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida xizmat ko‘rsatish, servis va turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

⁴ Т. Д. Бурменко Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.; В.К. Романович Сервисная деятельность: учеб. пос.: под общ. ред В.К.Романович. / С.Н.Коробкова, В.И.Кравченко, С.В.Орлов, И.П.Павлова – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 156 с.; Е.Е. Румянцева Новая экономическая энциклопедия: 4-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2011. - XII, 882 с. + DVD-R, - С. 717-718.

⁵ М.Қ.Пардаев, Ж.И.Исроилов, А.Қ.Ғаппаров. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; М.Э.Пўлатов, Қ.Ж.Мирзаев, Ш.А.Султонов, Э.Шавқиев Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув кўлланма. Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; М.М.Мухаммедов и др. Экономика торговли. Самарқанд. 1998. с.282; Д.Р.Зайналов Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; И.С.Тухлиев, Р.Ҳайитбоев, Б.Ш.Сафаров, Г.Р.Турсунова Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 332 б.; Н.У.Арабов, З.С.Артиков Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш. Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журналы//Самарқанд, СамДУ, № 1, 2021, 153-164 б.

⁶ А.Н.Асаул, М.П.Воинаренко Производственно-экономический потенциал и деловая активность субъектов предпринимательской деятельности, 2011. – 310 с.; В.С.Спирин Основные черты современных структурных изменений производственного потенциала предприятия // Консультант директора. – 2004. - №15; О.И. Девяткова Экономический потенциал таможенной территории России: Учеб. пособие. – Тюмень: Издательство ТГУ, 2006. – 293 с.

⁷ Қ.Х.Абдурахмонов Мехнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.: «FAN», 2019. – 592 б.; Ш.Ш.Шодмонов, У.В.Ғафуров Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2010. 585 б.; Б.Х.Умурзаков ва б. Мехнат ресурслари шаклланиши ва тақсимланишининг ҳудудий хусусиятлари. Монография. – Т.: «LESSON PRESS» 2017. – 188 б.; Г.К.Абдурахмонова Аҳолини муносиб мехнат тамойиллари асосида иш билан таъминлаш. Монография. – Т.: IQTISODIYOT, 2017. – 131 б.; А.Р.Ахмеджанов Хизмат кўрсатиш корхоналарида иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш. Дисс. Иқтисодиёт фанларидан PhD. – Самарқанд: СамИСИ, 2021. 155-б.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“xizmat ko'rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyati” kategoriyasining mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatning shakllanishi va uni oshirish omillari tasnifini ishlab chiqish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash usullarini aniqlash;

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining rivojlanish holatini tahlil qilish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish;

xizmat ko'rsatish korxonasida iqtisodiy salohiyatni oshirish bosqichlari va omillarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirishni strategik rejalashtirish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirishning innovatsion mexanizmini takomillashtirish;

hududiy xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishini istiqbollashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish tarmoqlari va korxonalari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib innovatsion iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekonometrik modellashtirish, prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra “xizmat ko'rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyati” tushunchasining iqtisodiy mazmuni resurs salohiyatining tarkibiy qismi sifatida muayyan vaqt mobaynida yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatini beruvchi, korxonaning mavjud iqtisodiy resurslaridan optimal foydalanish asosida xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish va maksimal darajada qondirish uchun jami imkoniyatlari yig'indisi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

xizmat ko'rsatish korxonasida iqtisodiy salohiyatni integral baholash usuli iqtisodiy salohiyatdan foydalanish holatini “past” ($0 \leq I_s < 0,49$), “o'rta” ($0,50 \leq I_s < 0,64$), “yaxshi” ($0,65 \leq I_s < 0,84$) va “yuqori” ($0,85 \leq I_s < 1,00$) darajali guruhlarga tabaqalashtirish hamda korxonalar salohiyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan;

xizmat ko'rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyat rivojlanishini strategik rejalashtirish tizimi (SRT) korxonada faoliyatining tashqi muhit omillari bilan bog'liq tashqi strategik maqsadlar (TSM) hamda ichki muhit omillarini ifodalovchi ichki strategik maqsadlar (ISM)ni aniqlash asosida takomillashtirilgan;

Samarqand viloyatida xizmatlar bozorining barqaror rivojlanish tendensiyalari hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida jami xizmat ko'rsatish hajmi dinamikasining 2029-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar xo'jalik faoliyati rivojlanishining muhim omili sifatida "xizmat ko'rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyati" kategoriyasining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

xizmatlar bozori kon'yunkturasi holati, xizmatlar eksporti va importi nisbati, aholi daromadlari darajasi, moddiy-texnik salohiyat, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish yo'naltirilgan korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish omillari endogen va ekzogen guruhlariga ajratish asosida tasniflangan;

xizmat ko'rsatish korxonasi iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini belgilash, uning rivojlanish mezonlariga muvofiq vazifalar va usullarni aniqlash hamda korxonaning iqtisodiy barqarorligi darajasini baholash asosida korxonada iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, korxonada iqtisodiy salohiyatni oshirish bosqichlari va omillarini aniqlash, korxonalarda iqtisodiy salohiyatni oshirishni strategik rejalashtirish hamda xizmat ko'rsatish sohasini istiqbollashtirish yo'nalishlarida ilmiy apparatni boyitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni shakllanish omillari tasnifini ishlab chiqish, korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, soha korxonalarida iqtisodiy salohiyatni oshirishni strategik rejalashtirish, sohaga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalaridan "Iqtisodiyot nazariyasi", "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti", "Korxonada iqtisodiyoti", fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "xizmat ko'rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyati" tushunchasining iqtisodiy mazmunini resurs salohiyatining tarkibiy qismi sifatida muayyan vaqt mobaynida yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatini beruvchi, korxonaning mavjud iqtisodiy resurslaridan optimal foydalanish asosida xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish va maksimal darajada qondirish uchun jami imkoniyatlari yig'indisi nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2025-yil 23-aprelda o'tkazilgan yig'lishi 11-son bayonnomasi, ro'yxatga olish raqami №504). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda korxonaning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish va maksimal darajada qondirish uchun jami imkoniyatlari yig'indisi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan xizmat ko'rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyati tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

xizmat ko'rsatish korxonasida iqtisodiy salohiyatni integral baholash usuli iqtisodiy salohiyatdan foydalanish holatini "past" ($0 \leq I_s < 0,49$), "o'rta" ($0,50 \leq I_s < 0,64$), "yaxshi" ($0,65 \leq I_s < 0,84$) va "yuqori" ($0,85 \leq I_s < 1,00$) darajali guruhlariga tabaqalashtirish hamda korxonada salohiyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tizimlashtirish asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 30-avgustdagi 08-10-25-13945-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish korxonada iqtisodiy salohiyatni obyektiv baholash darajasini oshirishga ko'ra boshqaruv qarorlarini optimalligini ta'minlashga muayyan darajada xizmat qilgan;

xizmat ko'rsatish korxonasida iqtisodiy salohiyat rivojlanishini strategik rejalashtirish tizimi (SRT) korxonada faoliyatining tashqi muhit omillari bilan bog'liq tashqi strategik maqsadlar (TSM) hamda ichki muhit omillarini ifodalovchi ichki strategik maqsadlar (ISM)ni aniqlash asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 30-avgustdagi 08-10-25-13945-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish korxonaning strategik maqsadlarini aniqlash orqali tashqi va ichki iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish imkonini bergan;

Samarqand viloyatida xizmatlar bozorining barqaror rivojlanish tendensiyalari hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida jami xizmat ko'rsatish hajmi dinamikasining 2029-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2025-2029-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining

2024-yil 30-avgustdagi 08-10-25-13945-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish 2029-yilga kelib, Samarqand viloyatida jami xizmatlar hajmini 19,9 %ga va sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi mahsulot hajmini 22,4 %ga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 2 ta va 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 146 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tgangili, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko'rsatish korxonalari iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy salohiyat shakllanishining mohiyati, mazmuni va shakllanish xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida “xizmat ko'rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyati” kategoriyasining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan va soha korxonalarida iqtisodiy salohiyat shakllanishining tarkibiy elementlari hamda korxonalarda iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning tashqi va ichki omillari aniqlangan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholash usullari takomillashtirilgan.


Iqtisodiy tizimlarning faoliyati iqtisodiy salohiyatni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonlariga asoslanadi. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va alohida korxonalarda ushbu jarayonlarning yuqori darajada samaradorligi zarurligini belgilaydi, bu esa yuqori dinamik faoliyat muhitida va cheklangan resurslardan oqilona foydalanish orqali samaradorlikni oshirish muammosini aniqlaydi va hal qilishga yordam beradi.

Tadqiqotchi olimlar tomonidan “iqtisodiy salohiyat” kategoriyasiga turli darajalarda ko'plab ta'riflar berilgan va bu yo'nalishda turli xil ilmiy yondashuvlar

asoslangan. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqqan holda, muallif tomonidan “xizmat ko‘rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyati” kategoriyasining iqtisodiy mohiyati yoritib berildi.

Xizmat ko‘rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyati – bu resurs salohiyatining tarkibiy qismi sifatida muayyan vaqt mobaynida yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatini beruvchi, korxonaning mavjud iqtisodiy resurslaridan optimal foydalanish asosida xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish va maksimal darajada qondirish uchun jami imkoniyatlari yig‘indisidir.

Xizmat ko‘rsatish korxonasida iqtisodiy salohiyat ko‘p jihatdan xizmat ko‘rsatish jarayoniga jalb qilingan iqtisodiy resurslarning alohida turlarining optimal kombinatsiyasiga, xizmat ko‘rsatish va mehnatni tashkil etish darajasiga, korxonani boshqarish tizimining samaradorligiga bog‘liq. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini shakllantirish, foydalanish va rivojlantirish jarayonlariga individual omillarning ta‘sirini baholash uchun uning tarkibiy elementlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni tahlil qilish kerak.



1-rasm. Xizmat ko‘rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyatining tarkibiy elementlari ⁸

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Oldingi tadqiqotlar tajribasini hisobga olgan holda, korxonalar iqtisodiy salohiyatining asosiy tuzilmani tashkil etuvchi elementlar sifatida aniqlash mumkin (1-rasm). Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, xizmat ko‘rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyati to‘rtta asosiy tuzilmani tashkil etuvchi elementlardan iborat: mehnat salohiyati; xizmat ko‘rsatish salohiyati; innovatsion salohiyat; tashkiliy va boshqaruv salohiyati.

Korxonalar iqtisodiy salohiyatining tuzilishi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan potentsiallar bilan tavsiflanadi: innovatsion salohiyat, xizmat ko‘rsatish salohiyati, mehnat salohiyati, moliyaviy salohiyat, boshqaruv uslubi, tashkiliy-boshqaruv shakli va boshqalar. Ularning har biri elementlarning kombinatsiyasi bilan belgilanishi mumkin. I. Innovatsion salohiyat deganda korxonaning boshqaruv uslubi, tashkiliy-boshqaruv shakli, marketing tadbirlarini samaradorligi, resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasi, shuningdek, texnologik rivojlanish darajasi va ilmiy tadqiqot va laboratoriya ishlari yutuqlarini faoliyat jarayonida foydalanishi mumkin bo‘lgan tajribasi kabi elementlar tushuniladi. II. Xizmat ko‘rsatish salohiyati – bu xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, transport va aloqa, mehnat resurslari, ishlab chiqarish quvvatlarining kombinatsiyasidir. Xizmat ko‘rsatish salohiyatiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish natijasida ularni quyidagi tartibda tasniflash mumkin: qulay geografik joylashuv; kommunal xizmatlar holati, transport tarmog‘i mavjudligi; keng ishlab chiqarish liniyasi; uzoq muddatli hamkorlar; past mehnat xarajatlari; malakali mutaxassislarining mavjudligi. III. Xizmat ko‘rsatish korxonasi mehnat salohiyati. Iqtisodchilar va sotsiologlar bugungi kunda ham butun jamiyat miqyosida, ham alohida mehnat jamoalari doirasida “inson omili” atamasini hajm jihatidan tavsiflash uchun “mehnat salohiyati” tushunchasidan foydalanadilar. Umumiy fikrga ko‘ra, “mehnat salohiyati” dinamikada inson omilini yashirin imkoniyatlarni tavsiflovchi uzluksiz, rivojlanayotgan, ko‘p qirrali jarayon shaklida taqdim etishi kerak. IV. Moliyaviy salohiyat. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini muhim tarkibiy elementlaridan biri bu korxonaning moliyaviy salohiyatidir. “Korxonaning moliyaviy salohiyati deb uning faoliyatini to‘liq ta‘minlaydigan turli manbalardan tarkib topgan moliyaviy mablag‘lar majmuasiga aytiladi”⁹. Shunday qilib, korxonaning o‘z va qarz mablag‘laridan unumli foydalanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonaning moliyaviy potensialini boshqarishga bog‘liq bo‘lib, bu korxonaga samaradorligini oshirish uchun tezda ta‘sir qilish va muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. V. Boshqaruv uslubi va tashkiliy-boshqaruv shakli. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini oshirish muammosini hal qilish uchun yuqoridagi barcha potentsiallarning kombinatsiyasidan foydalanish kerak.

Iqtisodiy salohiyatni baholash jarayonida xizmat ko‘rsatish korxonasi iqtisodiy salohiyatining tarkibiy elementlari holatini tavsiflovchi subpotensial ko‘rsatkichlar tanlab olinadi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyati darajasini har tomonlama baholash uchun foydalanilgan resurslarning samaradorligi va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini to‘liq aks ettiruvchi subpotensial ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

⁹ M.Q.Pardayev va boshqalar.// Iqtisodiy tahlil// o‘quv qo‘llanma.-“mehnat nashriyoti”. 2004- yil. 296 b.

Korxonalar subpotensial ko'rsatkichlari integral indekslari – bu korxonalar faoliyatining turli jihatlarini yagona kompleks ko'rsatkichga birlashtirish orqali baholash usulidir. Ushbu integral indekslar korxonaning ichki imkoniyatlarini to'liq ko'rsatishga va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining subpotensial indeksi ko'rsatkichlari standart normal taqsimotga ega bo'lganligi uchun integral indeks quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I = \sum_{i=1}^n a_{ij} \times z_{ij} \quad (1);$$

bu yerda: z_{ij} – j -korxonaning i -subpotensial ko'rsatkichining standartlashgan qiymati; a_{ij} – j -korxonaning i -subpotensial ko'rsatkichining vazn qiymati.

O'z navbatida standartlashgan qiymat quyidagicha aniqlanadi:

$$z_{ij} = \frac{K_{ij} - \mu}{\sigma} \quad (2);$$

bu yerda: K_{ij} - j -korxonaning i -subpotensial ko'rsatkichi qiymati

μ - subpotensial ko'rsatkichining o'rtacha qiymati;

σ - standart og'ish.

(2) formula asosida har bir subpotensial ko'rsatkichning standartlashgan qiymati hisoblab chiqildi va ushbu natijalar ilova qilindi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining subpotensial ko'rsatkichlari har xil darajadagi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun ularni integral indeksga birlashtirishda har bir ko'rsatkichga vazn (og'irlik) koeffitsienti belgilanadi. Bu koeffitsient har bir ko'rsatkichning umumiy samaradorlikka ta'sirini inobatga olish imkonini beradi. Subpotensial ko'rsatkichlari vazn koeffitsiyenti ekspert baholash usulida aniqlanadi. Bu jarayonda 5 tadan 10 tagacha tajribali mutaxassislar tanlanib, ular tomonidan har bir subpotensial ko'rsatkichning ahamiyati bo'yicha 10 ballik shkala asosida nisbiy vaznlar quyidagi formulada hisoblanadi¹⁰:

$$a_i = \frac{\sum K_i * \sum y_i}{\max \sum K_i * y_i} \quad (3);$$

bu yerda: y_i – yordamchi koeffitsient.

Korxonalar bo'yicha hisoblangan integral indeks ularning umumiy ishlab chiqarish (xizmatlar) salohiyatini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar asosida korxonalarini faoliyat samaradorligi darajasiga ko'ra guruhlariga ajratish mumkin. Bunday intervallash tahlilni yanada aniqroq qilish, ustuvor va orqada qolayotgan korxonalarini aniqlash imkonini beradi.

Korxonalarini integral indeks asosida intervallarga ajratish – bu kvantitativ baholash usuli bo'lib, har bir korxonaning subpotensial ko'rsatkichlari asosida hisoblangan integral indekslar orqali faoliyat samaradorligi toifalariga ajratishni nazarda tutadi. Bu jarayon odatda **Sturges' Rule**¹¹ formulasi asosida aniqlanadi:

¹⁰ В.М.Постников, С.Б.Спиридонов, (2015). Методы выбора весовых коэффициентов локальных критериев. 6, 267-287. <https://doi.org/10.7463/0615.0780334>

¹¹ R.Davis, (2017). Width-\$k\$ Generalizations of Classical Permutation Statistics. [arxiv: Combinatorics](https://arxiv.org/abs/1708.08881).

$$k = 1 + \text{Log} 2(n), \quad (4);$$

bu yerda, n – tanlanma hajmi.

$$h = \frac{X_{\max} - X_{\min}}{k}, \quad (5);$$

bu yerda: h – interval kengligi.

Ushbu formula asosida korxonalarining umumiy ishlab chiqarish (xizmatlar) salohiyati to‘plangan integral indeks ko‘rsatkichlariga tayanilgan holda 4 ta asosiy intervalga ajratildi (1-jadval). Bu intervallar: yuqori, yaxshi, o‘rtacha va past darajali guruhlarni o‘z ichiga oladi. Bunday guruhlash korxonalar salohiyatini tizimli tahlil qilish, ularning iqtisodiy holatini solishtirish va rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Natijada, har bir korxonaga o‘zining qaysi darajada joylashganini aniqlab, tegishli chora-tadbirlarni belgilashi mumkin bo‘ladi.

1-jadval.

Xizmat ko‘rsatish korxonasida iqtisodiy salohiyat darajalarining tavsifi¹²

Ko‘rsatkichi	Iqtisodiy salohiyatdan foydalanish darajasi	Tavsifi	
0,85-1,00	Yuqori	Mavjud resurslar raqamli transformatsiya strategiyasini amalga oshirish kontekstida strategik maqsadlarga erishishni to‘liq ta‘minlaydi.	
0,65-0,84	Yaxshi	Korxonaga raqamli yetuklik darajasini ahamiyatli darajada oshirishni ta‘minlashi mumkin.	
0,5-0,64	O‘rtacha	Korxonaga aniqlangan to‘siqlarni tuzatishi kerak.	
0-0,49	Past	Kerakli:	
		Xizmat ko‘rsatish subpotensial	asosiy kapitalni yangilash sur‘atlarini tezlashtirish, aylanma mablag‘lar aylanmasini tezlashtirish orqali korxonaning moddiy-texnik bazasini sezilarli darajada yaxshilash.
		Mehnat subpotensial	xodimlarning malakasini sezilarli darajada oshirish, kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirish, xodimlarning yoshi va kasbiy tuzilmasini optimallashtirish.
		Moliyaviy subpotensial	qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb qilish, moliyaviy resurslar tarkibini optimallashtirish, investitsiya faoliyatini faollashtirish.
		Texnologik subpotensial	asosiy fondlarning faol qismi ulushini oshirish, yangi texnologik yechimlarni joriy etishni tezlashtirish.
		AKT subpotensial	shaxsiy kompyuter bilan jihozlangan va Internetga kirishni ta‘minlovchi xodimlar ulushini oshirish, dasturiy ta‘minotni yangilash.

1-jadval xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar uchun iqtisodiy salohiyat darajasi bo‘yicha baholash tizimini tavsiflaydi. Har bir daraja bo‘yicha korxonaning qanday imkoniyatlarga ega ekanligi va qanday chora-tadbirlar zarur ekanligi aniq belgilangan. Bu tavsiflar raqamli transformatsiya, moliyaviy barqarorlik, kadrlar siyosati, texnologik va AKT imkoniyatlar bilan bevosita bog‘liq. Mazkur tavsiflar xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini aniqlash va uni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, past darajadagi korxonalar uchun subpotensiallarni yaxshilash orqali yuqoriroq darajaga chiqish mumkin.

Dissertatsiya ishining **“Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holati va korxonalar iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligi tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida viloyatda xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarining rivojlanish holati va soha korxonalarida iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish korxonasida iqtisodiy salohiyatni oshirish bosqichlari va omillari tadqiq qilingan.

Xizmat ko‘rsatish korxonasining iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar obyekt yoki tizimning asosiy parametrlari holatini rasmiy jihatdan tavsiflash, tizimning turli vaqtlarda ishlashi uchun optimal variantlarni tanlash va kelajakda uning rivojlanish yo‘llarining eng yaxshisini aniqlash imkonini beradigan eng muhim xususiyatlar to‘plami sifatida tushuniladi.

2-jadval.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan xizmat ko‘rsatish korxonalarining mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlari¹³

№	Korxonasi nomi	Mehnat unumdorligi, mln. so‘m		Fondlar bilan qurollanish darajasi, mln. so‘m		Mehnat potensialini foydaliligi, mln. so‘m	
		2023 y.	2024 y.	2023 y.	2024 y.	2023 y.	2024 y.
1.	“OG‘ABEK NAZARBEK NURBEK” MChJ	307,9	365,6	170,8	168,0	20,1	24,7
2.	“BAHT UMMON” MChJ	427,7	453,4	100,5	98,8	27,4	29,9
3.	“JAHON MANSUROV” MChJ	827,8	869,5	2014,1	1841,0	60,4	65,2
4.	“SAM BAGIR LUX” MChJ	677,8	840,5	2106,9	2154,5	49,5	63,0
5.	“ZEBO KLASS SERVIS” MChJ	156,4	157,7	105,3	108,0	10,1	10,3
6.	“SAMARQAND AEROGEODEZIYA” DUK	49,0	52,6	32,9	32,4	2,7	3,2
7.	“OAZIS GARDEN BOG‘ISHAMOL” MChJ	242,3	296,4	60,3	58,3	15,8	19,9
8.	“TURSUNOV SHAXRUZ QAXRAMONOVICH” XK	278,2	281,7	172,4	168,5	17,9	17,9
9.	“PREMIUM FOODS” OK	68,2	74,2	292,8	269,2	4,6	5,1
10.	“SHUKURULLO NUR BARAKASI” MChJ	336,4	395,6	235,6	246,0	22,5	24,9

¹³ Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Hudud xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligi mehnat samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Tahliliy ma'lumotlarga nazar solsak, 2024-yilda mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar sifatida "Jahon Mansurov" MChJ (869,5 mln. so'm), "Sam bagir Lux" MChJ (840,5 mln. so'm), "Baht ummon" MChJ (453,4 mln. so'm), "Shukurullo nur barakasi" MChJ (395,6 mln. so'm), "Og'abek Nazarbek Nurbek" MChJ (365,6 mln. so'm)larni keltirish mumkin. Tahlil qilinayotgan davrlarda fondlar bilan qurollanish darajasi eng yuqori korxonalar "Jahon Mansurov" MChJ (1841,0 mln. so'm), "Sam bagir lux" MChJ (2154,5 mln. so'm) hisoblanadi. 2024-yilda mehnat potensialining foydaliligi ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich "Jahon Mansurov" MChJ (65,2 mln. so'm) va "Sam bagir lux" MChJ (63,0 mln. so'm) hissasiga to'g'ri kelgan (2-jadval).

Samarqand viloyatida 2024-yilda tahlil qilinayotgan xizmat ko'rsatish korxonalarida mahsulot (xizmat) sotish rentabelligi "Sam bagir lux" MChJ (9,2%), "Jahon Mansurov" MChJ (8,9%), "Premium foods" OK (8,3%), "Shukurullo nur barakasi" MChJ (8,0%) va "Baht ummon" MChJ (8,0%) korxonalarida boshqa korxonalariga nisbatan yuqoriroq bo'lgan. 2024-yilda asosiy fondlar rentabelligi darajasi "Baht ummon" MChJ (30,3%) va "Oasis garden bog'ishamol" MChJ (34,1%) korxonalarida eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan. Shu bilan birga, fondlar sig'imi ko'rsatkichi "Zebo klass servis" MChJ (0,01 so'm)dan tashqari barcha korxonalarda 2023-2024 yillar mobaynida pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu, albatta tahlil qilinayotgan korxonalar uchun ijobiy holat hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari¹⁴

№	Korxonona nomi	Mahsulot (xizmat) sotish rentabelligi %		Asosiy fondlar rentabelligi, %		Fondlar sig'imi, so'm	
		2023 y.	2024 y.	2023 y.	2024 y.	2023 y.	2024 y.
1.	"OG'ABEK NAZARBEK NURBEK" MChJ	7,5	7,6	11,8	14,7	0,55	0,46
2.	"BAHT UMMON" MChJ	7,7	8,0	27,2	30,3	0,24	0,22
3.	"JAHON MANSUROV" MChJ	8,6	8,9	3,0	3,5	2,43	2,12
4.	"SAM BAGIR LUX" MChJ	8,9	9,2	2,3	2,9	3,11	2,56
5.	"ZEBO KLASS SERVIS" MChJ	7,6	7,8	9,6	9,5	0,67	0,68
6.	"SAMARQAND AEROGEODEZIYA" DUK	5,0	5,2	8,1	9,8	0,67	0,62
7.	"OAZIS GARDEN BOG'ISHAMOL" MChJ	7,0	7,2	26,1	34,1	0,25	0,20
8.	"TURSUNOV SHAXRUZ QAXRAMONOVICH" XK	7,2	7,5	10,4	10,6	0,62	0,60
9.	"PREMIUM FOODS" OK	8,3	8,3	1,6	1,9	4,29	3,63
10.	"SHUKURULLO NUR BARAKASI" MChJ	7,9	8,0	9,6	10,1	0,70	0,62

¹⁴ Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Korxonalarining subpotensial ko'rsatkichlari bo'yicha vazn koeffitsientlari aniqlangandan so'ng, har bir ko'rsatkichning umumiy samaradorlikka ta'siri hisobga olingan holda, (1) formula asosida subpotensial ko'rsatkichlarning integral indeklari hisoblab chiqildi (4-jadval). Bunda korxonalarining iqtisodiy salohiyati ko'rsatkichlari tavsifi quyidagilardan iborat: K1 – xizmatlar hajmi (mln. so'm), K2 – sof foyda hajmi (mln. so'm), K3 – mahsulot (xizmat) sotish rentabelligi (%), K4 – Ishchi-xodimlari soni (kishi), K5 – mehnat unumdorligi (mln. so'm), K6 – mehnat potensialini foydaliligi (mln. so'm), K7 – asosiy fondlari qiymati (mln. so'm), K8 – fondlar qaytimi (so'm), K9 – fondlar sig'imi (so'm), K10 – asosiy fondlar rentabelligi (%), K11 – fondlar bilan qurollanish darajasi mln. so'm (4-jadval).

4-jadval.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan xizmat ko'rsatish korxonalarini iqtisodiy salohiyatining integral indeksi¹⁵ (2024-yil holatida)

Ko'rsatkichlar	“OG‘ABEK NAZARBEK NURBEK” MCHJ	“BAHT UMMON” MCHJ	“JAHON MANSUROV” MCHJ	“SAM BAGIR LUX” MCHJ	“ZEBO KLASS SERVIS” MCHJ	“SAMARQAND AEROGEODEZIYA” DUK	“OAZIS GARDEN BOG‘ISHAMOL” MCHJ	“TURSUNOV SHAXRUZ QAXRAMONOVICH” XK	“PREMIUM FOODS” OK	“SHUKURULLO NUR BARAKASI” MCHJ
K1	0,025	0,044	0,040	0,027	0,087	0,058	0,024	0,087	0,033	0,035
K2	0,017	0,030	0,026	0,020	0,059	0,023	0,017	0,104	0,026	0,046
K3	0,106	0,027	0,035	0,035	0,035	0,027	0,035	0,027	0,000	0,106
K4	0,030	0,030	0,020	0,000	0,036	0,060	0,045	0,045	0,023	0,000
K5	0,007	0,019	0,022	0,006	0,111	0,016	0,006	0,111	0,014	0,007
K6	0,012	0,028	0,032	0,011	0,113	0,014	0,011	0,000	0,023	0,023
K7	0,006	0,013	0,063	0,032	0,008	0,063	0,063	0,032	0,000	0,016
K8	0,033	0,053	0,028	0,020	0,000	0,046	0,018	0,092	0,020	0,033
K9	0,070	0,035	0,057	0,078	0,000	0,030	0,087	0,013	0,065	0,048
K10	0,009	0,018	0,013	0,009	0,000	0,011	0,008	0,092	0,012	0,037
K11	0,000	0,000	0,000	0,087	0,058	0,000	0,000	0,000	0,000	0,044
ΣK	0,315	0,297	0,336	0,325	0,507	0,348	0,314	0,603	0,216	0,395
Integral indeks	0,522	0,493	0,557	0,539	0,841	0,577	0,521	1,000	0,358	0,655

4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, korxonalarining xizmatlar hajmi bo'yicha eng yuqori natijalar “Tursunov Shaxruz Qaxramonovich” XK (0,087) va “Zebo klass servis” MCHJ (0,087) tomonidan ko'rsatilgan. Bu korxonalarda xizmat ko'rsatish salohiyati yuqori bo'lib, ularning sof foyda hajmi

¹⁵ Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

ham sezilarli darajada yuqori (mos ravishda 0,059 va 0,104). Bu ko'rsatkichlar korxonalarining bozordagi faolligini va foyda olish qobiliyatini ifodalaydi. "Og'abek Nazarbek Nurbek" MCHJ va "Shukurullo nur barakasi" MCHJ yuqori rentabellik ko'rsatkichlari (0,106) bilan ajralib turadi. Boshqa korxonalarda bu ko'rsatkich 0,035 atrofida bo'lsa-da, "Premium foods" OK bu borada eng past natijani (0,000) ko'rsatgan, bu esa foyda olishda muammolar mavjudligini anglatadi. "Tursunov Shaxruz Qaxramonovich" XK va "Zebo klass servis" MCHJ mehnat unumdorligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga ega (0,111). Bu ularning ishchi kuchidan samarali foydalanayotganini bildiradi. Shuningdek, bu korxonalarda ishchi-xodimlar soni ham nisbatan yuqori bo'lib, bu mehnat resurslari salohiyatining yuqoriligidan darak beradi. "Asosiy fondlari qiymati" ko'rsatkichi bo'yicha "Jahon Mansurov" MCHJ (0,063), "Samarqand aergeodeziya" DUK (0,063) va "Oazis garden bog'ishamol" MCHJ (0,063) yetakchilik qilmoqda. Fondlar qaytimi bo'yicha esa eng yaxshi natija "Tursunov Shaxruz Qaxramonovich" XK (0,092) ga tegishli. Bu korxonada asosiy fondlar yuqori rentabellik bilan ishlatilgan (0,092). "Sam bagir lux" MCHJ (0,087), "Zebo klass servis" MCHJ (0,058) va "Shukurullo nur barakasi" MCHJ (0,044) fondlar bilan qurollanish darajasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega (4-jadval). Bu ishlab chiqarish texnikasi va asbob-uskunalarining yetarli darajada ta'minlanganini bildiradi.

5-jadval.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan xizmat ko'rsatish korxonalarini iqtisodiy salohiyati darajalarining intervallari¹⁶

Interval	Oraliq chegaralari	Korxonalar
1-daraja – yuqori	0,85-1,00	"TURSUNOV SHAXRUZ QAXRAMONOVICH" XK "ZEBO KLASS SERVIS" MCHJ
2-daraja – yaxshi	0,65-0,84	"SHUKURULLO NUR BARAKASI" MCHJ
3-daraja – o'rtacha	0,50-0,64	"SAMARQAND AEROGEODEZIYA" DUK "JAHON MANSUROV" MCHJ "SAM BAGIR LUX" MCHJ "OG'ABEK NAZARBEK NURBEK" MCHJ "OAZIS GARDEN BOG'ISHAMOL" MCHJ
4-daraja – past	0-0,49	"BAHT UMMON" MCHJ "PREMIUM FOODS" OK

